

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'étranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri	1111
Sh.G.Akbarova	
O некоторых тайнах Французских артиклей	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realiyalarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabbllarning o'rganilishi	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education)	1153
N.X.Qurbanov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati	1166
D.R.Axmadaliev	
Talabalarning ingliz tilida nutqi kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xonijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida clil texnologiyalarining integratsiyasi	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasalishining umumiy va farqli jihatlari	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals	1210



UO'K: 811.512.133+81.373.282

TURLI TIZIMLI TILLARDA GEORTONIMIK INDIKATORLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ГЕОРТОНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ СИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF GEORTONIMIC INDICATORS IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Farg'onan davlat universiteti, Tilshunoslik kafedrasini tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek, ingliz va rus tillarida bayram va madaniy, siyosiy, san'at, ma'niviy-ma'rifiy, sport tadbirlariga ishora qiladigan geortonimik indikatorlar tahsil qilingan. Nomshunoslik tarkibida geortologiya yo'nalishi xalqlar milliy va xalqaro miqyosdagi bayram nomlarini o'rganishni talab qilmoqda. Indikatorlar nomshunoslik sohasida ayrim nomlar tarkibida keluvchi, ularning aynan onomastikaning aynan qaysi sohasiga tegishli ekanligini ko'rsatib turuvchi birliklardir. Ushbu indikatorlar odatda ot shaklida so'zlar bo'lib, apellyativ asosga qo'shilib ishtirok etadi va onomastik birlikni ifodalab keladi. Bunday indikatorlarning turli tizimli tillarda o'ziga xos xususiyatlari lingvistik aspektida tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье анализируются геортонимические показатели, относящиеся к праздникам и культурным, политическим, художественным, духовно-просветительским, спортивным мероприятиям на узбекском, английском и русском языках. В рамках номенклатуры область геортологии требует изучения национальных и международных праздничных названий народов. Показатели – это единицы, которые встречаются в некоторых названиях в области номенклатуры и показывают, к какому разделу ономастики они относятся. Этими показателями обычно являются слова в форме существительного, которые присоединяются к апеллятивной основе и представляют собой ономастическую единицу. С лингвистической точки зрения изучены особенности таких показателей в разных системных языках.

Abstract

The article analyzes heortonymic indicators referring to holidays and cultural, political, art, spiritual-educational, sports events in Uzbek, English and Russian languages. As part of naming system, the field of heortology requires the study of national and international holiday names of nations. Indicators are units that appear in some names in the field of names and show which branch of onomastics they belong to. These indicators are usually words in the form of a noun, which join the appellative base and represent an onomastic unit. The specific characteristics of such indicators in different system languages have been studied from a linguistic point of view.

Kalit so'zlar: onomastika, geortologiya, geortonim, bayram nomlari, indikator, apellyativ so'z, bir komponentli geortonim, ko'p komponentli geortonim, geortonimik formula.

Ключевые слова: ономастика, геортология, геортоним, названия праздников, указатель, апеллятивное слово, однокомпонентный геортоним, многокомпонентный геортоним, формула геортонима.

Key words: onomastics, heortology, heortonym, holiday names, indicator, appellative word, one-component heortonym, multi-component heortonym, heortonym formula.

KIRISH

Tilshunoslikda atoqli otlar nomini o'rganuvchi onomastika sohasi yaqin yillar ichida rivojlanib, chuqur ildiz ortib bormoqda. Bunday lisoniy doiradagi o'zgarishlar tadqiqotchi va tilshunos olimlar oldiga jamiyi nomlar yuzasidan chuqur izlanish olib borish zaruriyatini qo'yumoqda. Onomastika yunon tilidan olingan bo'lib, "nom berish san'ati" degan ma'noni bildiradi.

Bayramshunoslik bilan aloqador terminlar bir qator tarixchilar, etnograflar, madaniyatshunoslari va faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Bayram ijtimoiy hodisa hisoblanib, vujudga kelish jarayonida madaniyat tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ritual va mif shakllari bilan o'zaro aloqadordir.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA

Bayramshunos olim D.Genkin ommaviy bayramlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, ularni tashkillashtirish, o'tkazish masalalarini tahlil qilgan. U madaniyatshunoslik faniga *праздничная ситуация, ya'ni bayram holati tushunchasini olib kirgan* [4, 52-58].

Chez tilshunosligida bayramlarning nomlari V. Smilauer, R. Sramek tomonidan xrematoniqlarning bir turi sifatida belgilanib, J. Kornelly tomonidan xrononimlar deb yuritilgan. Mazkur onomastik birliklar rus tilshunosligida geortonim (O.Andreeva, O.Vrublevskaya, T.Maxracheva, N.Podolskaya, T.Tolstaya) yoki xrononim (M.Valensova, T.Maxracheva, A.Moroz, S.Tolstaya) deb yuritiladi. Bayramlarning nomlariga nisbatan geortonimlar terminini qo'llash, ularni xrononimlarning turi sifatida qarash maqsadga muvofiq [3, 15].

Mahmud Koshg'ariyning qayd etishicha, qadimgi turkiy tilda *bayram so'zi bazram* tarzida talaffuz qilingan, o'g'uzlar esa z undoshini y undoshiga almashtirib, *bayram* deb talaffuz qilganlar [1, 447]. Buni quyidagi etimologik izohlar ham tasdiqlaydi: "Bu ot qadimgi turkiy tildagi "yoyil-", "yayra-" ma'nosini anglatgan baz- fe'lining *bay-* shakliga -(i)r ortirma qo'shimchasini va kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -a qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan shaklidan -m qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, o'zbek tilida a unlilari a unlisiga almashgan: *baz – bay + ir + a = bayira + m = bayiram > bayram* [2, 37]. Demak, bayram leksik birligi tarixiy-etimologik jihatdan turkiy tillarning o'g'uz dialektiga kiradi va lingvistik taraqqiyot davomida bazram so'zining bayram holatiga o'tishi natijasida hozirgi shaklga kelgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bayram "tarixiy, madaniy-ma'naviy an'analarga ko'ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni" ma'nosida [5, 142] yuzlab geortonimlar tarkibida faol qo'llanadi: *Navro'z bayrami, Mustaqillik bayrami* kabi.

Tadqiqot yuzasidan materiallar to'plash va tahlil qilishda etimologik, leksik-semantik, statistik, lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalananilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bayram va madaniy, siyosiy, san'at, ma'naviy-ma'rifiy, sport tadbirlariga ishora qiladigan indikatorlar o'zbek lingvistikasida **geortonimik indikatorlar** deb tushuniladi. O'zbek tilida *bayram, hayit, ayyom, konser, kun, ko'rik-tanlov, festival* kabi geortonimik indikatorlar ham mavjud. Bunday indikatorlar o'zining tarixiy-etimologik manbasidan kelib chiqib, o'z ma'no va qo'llanish xususiyatlarini namoyon qiladi.

Bayram o'zbek tili geortonimiyasida eng faol qo'llanuvchi indikator hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *bayram* polisemantik lug'aviy birlik sifatida quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Tarixiy, madaniy-ma'naviy an'analarga ko'ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni (*Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, G'alaba bayrami, Yangi yil bayrami*).

2. Biron-bir munosabat bilan o'yin-kulgi ishtirokida tantanali ravishda o'tkaziladigan tadbir (*Oilaviy bayram, Archa bayram, Sport bayrami, She'riyat bayrami, San'at bayrami*).

3. Ko'chma, Vaqtichog'lik, xursandchilik; baxt-omad (*Joni sog'ga kunda bayram, kunda to'y – Maqol*) [5, 142].

So'zlar ham so'zlay oladi, albatta. So'zlar shakl-u shamoyili, ma'no-mazmuni bilan o'zi ifodalayotgan obyekt va subyektlarga ishora qiladi. Bu o'zbek tilida keng qo'llaniladigan *bayram* va uning arab tilidan o'zlashgan sinonimi bo'lgan ayyom leksemasingning ma'no tuzilishida ham yorqin ko'zga tashlanadi. O'zbek lingvistikasida *bayram* so'zi "muborak kun", "tantana, shodlik bilan o'tkaziladigan kun" ma'nolarini biladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "hayit" so'zining arabcha "iyd" so'zi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Diniy manbalarda bu so'zning boshidagi 'ayn harfining o'ziga xos maxraji tufayli tilimizda "iyd" so'zi "hayit" deb talaffuz qilinadi [7]. Demak, *hayit* so'zi arab tilida "iyd" bo'lib, "qayta, qayta takrorlanish", "foyda – manfaat" ma'nolarini bildiradi. Hayit [a. bayram, tantana] din. Yilda ikki marta: ramazon tamom bo'lgach, uch kun va qurban oyida uch kun bo'lib o'tadigan diniy bayram [6, 484].

Arabcha *hayit* so'zi oldingi vaqtida umuman bayram ma'nosida qo'llanilgan. Bu indikatorlar vositasida diniy bayramlar yuzaga kelgan.

TILSHUNOSLIK

Ingliz geortonimlari o'zining tarkibiy qismidagi asos apellyativ va indikator apellyativlarning qo'shilishi yuzasidan hosil bo'lishida o'zbek geortonimlari bilan deyarli yaqin turadi. Ushbu tildagi mavjud geortonimlar ko'p holatlarda birgina appelyativga bayram mazmunini beruvchi indikatorni to'gridan to'gri qo'shish orqali osongina yasalish xususiyatiga ega. Bunday geortonimik indikatorlarga ingliz tilidagi *day, eve, night, holiday, birthday* kabi aspektual komponentlarni misol keltira olamiz.

Eng ko'p qo'llaniladigan indikator "Day" so'zi hisoblanib (75ta geortonimlarda ishtirok etadi), bir komponentli va ko'p komponentli geortonimik birlıklar tarkibida qatnasha oladi. Masalan, *Earth Day, Father's Day, Flag Day, Fool's Day, Random Acts of Kindness Day, Religious Freedom Day, Smokey Bear Day* va h.klar yuqoridagi indikator qatnashuviga misol bo'la ladi.

"Day" indikatorining geortonimik formulada aynan yaxlit o'rni mavjud emas va bayram nomining boshida ham, oxirida ham kela olishi mumkin. Agar ushu indikator geortonimik strukturaning boshida kelsa, qolgan komponentlarga "of" predlogi bilan qo'shiladi, masalan, *Day of blessing of bicycles, Day of Commonwealth, Day of the American flag*.

Agar "day" indikatori strukturaning oxirida kelsa, hech qanday predlogsiz qo'shila oladi (*Independence Day, Labor Day, Memorial Day, United States Coast Guard Day, Holocaust Memorial Day*). Ba'zi holatlarda *day* indikatori geortonom tarkibida qaratgich kelishigi –ning mazmunini beruvchi 's qo'shimchasi bilan birga keladi (*Women's Equality Day, St. Andrew's Day, St. David's Day*).

Birthday indikatori ham *day* indikatori kabi geortonim tarkibida keladi, lekin *day* indikatoridan farqli o'laroq *birthday* indikatori o'zgarmas turg'un formulani talabqladi, ya'n doimo –ning qaratgich kelishigi mazmunini beruvchi 's qo'shimchasi bilan birga birikadi (*Washington's Birthday, Martin Luther King's Birthday, Queen Elizabeth's Birthday*).

Eve, Night, Holiday indikatorlari ham ham geortonimik formulaning oxirida birikib keladi va hech qanday qo'shimchasiz qo'llaniladi. Masalan, *Twelfth Night, Walpurgis Night, Christmas Eve, Bank Holiday* kabilarda to'gridan to'g'ri birikib geortonim hosil qiladi.

Ma'lum bir ingliz geortonimlarida hafta kun nomlari ham indikator funksiyasini bajarishi mumkin (*Ash Wednesday, Good Friday, Holy Thursday, Palm Sunday, Black Friday*).

Rus xalqi geortonimlari ham yuqoridagi kabi geortonimik indikatorlarga egadir. Bunday geortonimik komponentlar alohida olinganda asl appelyativ so'zlar bo'lib, birgalikda qatnashgan holda onomastik birlıklarni farqlovchi vazifasini bajara boshlaydi. Bunday rus indikatorlarga, asosan, *год, неделя, день* kabi temporallik ma'zmuniga ega bo'lgan appelyativ otlar kiradi.

Mazkur appelyativlar bayram nomini ifodalovchi ibora tarkibida kelganda, o'zining asl denotativ ma'nosini o'zgartirib, geortonimik mazmunga o'tadi. Masalan, *Новый год, День учителя, Неделя славянской письменности и культуры* kabi rus geortonimlarda aynan ajratib ko'rsatilgan indikatorlar o'z asl ma'nosini yo'qotib, "bayrami" kabi yangi semantik ma'noni ifodalab keladi.

Shuningdek, dunyoviy geortonim indikatorlari ichida eng ko'p qo'llaniladigan *день, ya'n kun* indikatori hisoblanadi (*День налоговой полиции, День Российской науки, День пожарной охраны*). Lekin bunday uch o'zakli bayram nomlari o'gzaki nuqtga o'tgan vaqtida ikki o'zakli birikmaga aylanib ketadi (*День науки, День пожарника*).

Ayrim hollarda *день* indikatorining geortonimik birikma tarkibida **sifat+indikator+ot** formula holatida *Международный день театра, Международный день таможенника, Всемирный день здоровья* kabilalar misolida kelishini kuzatish ham mumkin.

XULOSA

Geortonimik indikatorlar bayram nomlaringin qay darajada qo'llanilishi, ularning xaql hayotidagi o'rni, geortonimlarning aynan qaysi bir guruhi tegishli ekanligini ko'rsatib turadi. O'zbek tilida bayram nomlari asosan *bayram, hayit, ayyom, festival, kun, ko'rgazma, ko'tik-tanlov* kabi apellyativlar indikatorlar vazifasini bajarsa, ingliz tilida *day, eve, night, year, birthday* kabilalar, rus tilida *год, неделя, день* kabilalar geortonimik indicator bo'lib ishtirok etadi. Bunday holatda ushu indikatorlar ma'lum bir geoortonimik formula asosida bayram nomi tarkibida qatanshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махмуд Кошгари. Девону пуготит турк. – Тошкент: Фан, 1966. I т. – Б.447.

2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 37.
3. Салиходжаева Х. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқики. Фил. Фан. ... Диссер. Фаргона – 2020. – В.15.
4. Генкин Д.М. Массовые праздники. – Москва: Просвещение, 1975. – С.52-58.
5. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 142.
6. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 484.
7. Мухаммад Абдуллоҳ Рожув (Мухаммад Али Мухаммад Юсуф таржимаси.) Ийд ҳақида // islom.uz.